TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASI VA PASSIVLARNI BOSH QARISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

Djurayev.Kh.G
TDIU. Mustaqil izlanuvchi
jxurshid1907@mail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23161631

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish va passivlarni boshqarishning nazariy-konseptual asoslari tadqiq etilgan. Bank tizimidagi raqamli transformatsiya va platformali bankchilik sharoitida resurslar barqarorligini ta'minlash hamda xarajatlarni optimallashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O'zbekiston tijorat banklari ("Sanoatqurilishbank" ATB va "ATB Qishloq qurilish bank" / "SQB" va "BRB") hamda xorijiy moliya instituti (JPMorgan Chase & Co.) dinamik ko'rsatkichlari solishtirma tahlil qilinib, resurs bazasini diversifikatsiyalash va passivlar tannarxini pasaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, resurs bazasi, passivlarni boshqarish, depozitlar volatilligi, Platformali bankchilik (BaaP), Open API, likvidlik riski, CASA resurslari, foizli xarajatlar, moliya instituti.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-концептуальные основы формирования ресурсной базы и управления пассивами коммерческих банков. Проанализированы вопросы обеспечения устойчивости ресурсов и оптимизации расходов в условиях цифровой трансформации и платформенного банкинга (BaaP). В ходе исследования проведен сравнительный анализ динамических показателей коммерческих банков Узбекистана (АКБ "Узпромстройбанк"и АКБ "Бизнес развивающий банк") и зарубежного финансового института (JPMorgan Chase & Co.),разработаны научно-практические предложения по диверсификации ресурсной базы и снижению стоимости пассивов.

Ключевые слова: коммерческий банк, ресурсная база, управление пассивами, волатильность депозитов, платформенный банкинг (BaaP), Open API, риск ликвидности, ресурсы CASA, процентные расходы, финансовый институт.

Abstract: This article examines the theoretical and conceptual foundations of commercial bank resource base formation and liability management. It analyzes the issues of ensuring resource stability and cost optimization under the conditions of digital transformation and Banking-as-a-Platform (BaaP). The research provides a comparative analysis of dynamic performance indicators of Uzbek commercial banks (JSCB "Uzpromstroybank" and "Business Development Bank") and an international financial institution (JPMorgan Chase & Co.), formulating scientific and practical recommendations for diversifying the resource base and reducing the cost of liabilities.

Keywords: commercial bank, resource base, liability management, deposit volatility, Banking-as-a-Platform (BaaP), Open API, liquidity risk, CASA resources, interest expenses, financial institution.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Raqamli iqtisodiyotning shiddatli rivojlanishi va moliya bozorlaridagi globallashuv tijorat banklarining an'anaviy biznes-modellarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini islohot qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligini ta'minlash, depozitlar va passivlar tarkibini diversifikatsiyalash hamda moliyaviy xatarlarni kamaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Klassik bankchilik nazariyasiga ko'ra, bank passivlarini boshqarish omonatlar va qarz mablag'larini maksimal darajada jalb qilishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida asosiy e'tibor resurslarning marjinal tannarxi, volatilligi hamda ekotizimli uzviyligiga qaratilmoqda. Iqtisodchi olim E.Baltensperger (1980) bank resurslarini boshqarishda likvidlik va xarajatlar o'rtasidagi kompromiss modelini asoslab bergan bo'lsa, M.Choudhry (2011) Aktiv va passivlarni boshqarish (ALM) doirasida passivlar barqarorligini ta'minlashning zamonaviy metodologiyasini taklif etgan. Mahalliy olimlardan Sh.Abdullayeva (2017) va A.Omonov (2019) milliy bank amaliyotida deposit bazasini optimallashtirish masalalarini tadqiq etishgan. Biroq, Open API va Platformali bankchilik (Banking-as-a-Platform – BaaP) sharoitida arzon va tranzaksion resurslarni jalb qilishning nazariy-konseptual mexanizmlari yetarlicha kompleks o'rganilmagan.[1]

METODOLOGIYA.Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining resurs bazasi hamda passivlar strukturasini baholash uchun ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyosiy va strukturaviy tahlil hamda ko'rsatkichlarning dinamik qatorlarini taqqoslash usullaridan foydalanildi. Milliy va xorijiy banklar resurs bazasi volatilligini baholashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, JPMorgan Chase & Co. yillik moliyaviy hisobotlari hamda tijorat banklarining auditorlik xulosalaridan foydalanildi. Tahlil davomida milliy banklar uchun 2020–2025-yillar, xorijiy moliya instituti uchun esa 2018–2024-yillar oralig'idagi dinamik ma'lumotlar qamrab olindi.[2] Passivlar tannarxi va ularning aktivlar rentabelligiga ta'siri moliyaviy koeffitsiyentlar va indikatorlar tizimi orqali ilmiy asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR.Tijorat banklari resurs bazasining barqarorligi ularning passivlar tarkibidagi depozitlar va jalb qilingan sarmoyalarning strukturaviy sifatiga bog'liqdir. So'nggi yillarda respublika bank tizimida davlat ishtirokidagi banklarni transformatsiya qilish va ularning depozit bazasini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish jarayoni jadal kechmoqda.

1-jadval. O'zbekiston tijorat banklarining resurs bazasi va passivlari tarkibi dinamikasi (2020–2025-yillar, mlrd so'm)[3]

Bank nomi va ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y. (prognoz)
"Sanoatqurilishbank" ATB (SQB)						
Jami passivlar	41 250	48 600	56 300	64 200	72 500	81 000
Depozitlar bazasi (Jami)	12 400	16 200	21 500	26 800	32 400	38 500
— Shu jumladan: Talab qilib olinguncha (CASA)	4 200	5 800	8 100	10 500	13 200	16 000
Resurslarning	11,2%	10,8%	10,5%	10,2%	9,8%	9,4%

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

o‘rtacha tortilgan foiz xarajati (%)						
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB (BRB)						
Jami passivlar	14 100	16 800	19 500	23 400	28 100	33 200
Depozitlar bazasi (Jami)	4 800	6 100	7 900	10 200	13 500	17 000
— Shu jumladan: Talab qilib olinguncha (CASA)	1 500	2 100	2 900	3 800	5 100	6 800
Resurslarning o‘rtacha tortilgan foiz xarajati (%)	12,5%	12,1%	11,8%	11,4%	10,9%	10,3%

Manba: Tijorat banklarining yillik va choraklik moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020–2025-yillar oralig‘ida “Sanoatqurilishbank” ATB va “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda jami passivlar va depozitlar bazasi barqaror o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan. Xususan, SQBda jami passivlar 2020-yildagi 41 250 mlrd so‘mdan 2025-yilga kelib 81 000 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda, bu esa resurs bazasining qariyb 2 baravarga kengayganligini anglatadi. Muhim jihati shundaki, arzon tranzaksion resurslar – talab qilib olinguncha depozitlar (CASA) ulushining ortib borishi natijasida SQBda resurslar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz xarajati 11,2 foizdan 9,4 foizga, BRBda esa 12,5 foizdan 10,3 foizga pasayish tendensiyasini namoyon etgan.[4]

O‘z navbatida, milliy bank tizimidagi resurs bazasi sifatini oshirish va passivlar volatilligini maqbullashtirishda ilg‘or xorijiy moliya institutlari tajribasini o‘rganish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval. Xorijiy moliya instituti (JPMorgan Chase & Co.) resurs bazasi va passivlarini boshqarish ko‘rsatkichlari dinamikasi (2018–2024-yillar, mlrd USD)[5]

Ko‘rsatkichlar nomi	**2018 -y.**	**2019 -y.**	**2020 -y.**	**2021 -y.**	**2022 -y.**	**2023 -y.**	**2024 -y.**
Jami passivlar	**2 368**	**2 423**	**3 115**	**3 438**	**3 382**	**3 537**	**3 710**
Jami depozitlar bazasi	**1 471**	**1 562**	**2 144**	**2 462**	**2 340**	**2 401**	**2 520**
— Foizsiz tranzaksion depozitlar ulushi (%)	32,4 %	33,1 %	36,8 %	38,2 %	35,4 %	33,8 %	34,5 %
Uzoq muddatli qarz majburiyatlari	284	291	312	308	325	340	355

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Resurs jalb qilishning o‘rtacha tannarxi (%)	0,95 %	1,12 %	0,35 %	0,18 %	1,42 %	2,85 %	2,60 %

Manba: JPMorgan Chase & Co. Annual Reports (Form 10-K, 2018–2024) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadvalda keltirilgan milliy banklar ko‘rsatkichlari 2-jadvaldagi xorijiy moliya instituti (JPMorgan Chase & Co.) tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda qiyoslanganda, resurs bazasining strukturaviy sifatidagi keskin tafovutlar namoyon bo‘ladi. JPMorgan Chase & Co. resurs bazasining 33–38 foizi mutlaqo foizsiz tranzaksion depozitlardan shakllangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich ekotizimli raqamli platformalar va ochiq banking (Open Banking) imkoniyatlaridan keng foydalanilganligi natijasidir. Milliy banklarimizda esa tranzaksion resurslar ulushi nisbatan past va foizli xarajatlar darajasi yuqoriligicha qolmoqda. AQSh Federal Zaxira Tizimi stavkalarining o‘zgarishi natijasida JPMorgan Chaseda resurs tannarxi 2021-yildagi 0,18 foizdan 2023-yilda 2,85 foizga ko‘tarilgan bo‘lsada, bankning moslashuvchan ekotizimli modeli passivlar volatilligini ushlab turish imkonini berdi.[6] Demak, 1-jadvaldagi O‘zbekiston banklarining foiz xarajatlarini pasaytirish maqsadlari aynan 2-jadvalda o‘z aksini topgan raqamli platformali va diversifikatsiyalangan passivlar modeliga o‘tishni taqazo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish hamda passivlarni samarali boshqarishning nazariy-konseptual va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi. Bugungi kunda bank tizimidagi raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlari tijorat banklarining an’anaviy resurs jalb qilish modellarini tubdan isloh qilishni hamda passivlar tarkibini diversifikatsiyalashni talab etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yuqori foizli muddatli depozitlarga tayanib resurs bazasini kengaytirish banklarning foizli xarajatlarini oshirib, ularning sof foizli marjasini qisqartirmoqda hamda moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, bank majburiyatlarini shakllantirishda Platformali bankchilik (Banking-as-a-Platform – BaaP) va Open API texnologiyalariga bosqichma-bosqich o‘tish hamda bank passivlari nazariyasiga “raqamli tranzaksion passivlar” tushunchasini kiritish konseptual zaruriyat hisoblanadi. Raqamli platformalar orqali jalb qilinadigan arzon tranzaksion resurslar (CASA) hajmini oshirish bank resurslari o‘rtacha tortilgan tannarxini pasaytirish va likvidlik risklarini optimal boshqarishning eng samarali omilidir.[7]

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan holda, tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligini ta’minlash va passivlarni boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, tijorat banklarida arzon tranzaksion resurslar ulushini oshirish uchun mijozlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri foizli daromadlar to‘lash o‘rniga, hamkorlik ekotizimlari orqali tranzaksion keshbeklar va imtiyozli vaucherlarni taqdim etuvchi rag‘batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish lozim. Ikkinchidan, kichik va o‘rta biznes hamda elektron tijorat subyektlari uchun “nol stavkali tranzaksion inkassatsiya” va imtiyozli ekvayring tariflarini taklif etish evaziga ularning bo‘sh pul mablag‘larini bank hisobvaraqlarida doimiy saqlash bo‘yicha shartnomaviy-tashkiliy reglamentlarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, Open API va uchinchi tomon platformalari orqali kirib keladigan resurslarning to‘satdan oqib ketish xavfini barvaqt aniqlash uchun banklarning Aktiv va passivlarni boshqarish qo‘mitasi (ALM) faoliyatiga ekotizimlararo resurslar oqimini dinamik stress-testlash uslubiyotini integratsiya qilish zarur. To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan raqamli platformalar va ochiq banking orqali shakllantiriladigan passivlar bo‘yicha konsentratsiya risklarini cheklovchi va likvidlikni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy standartlar paketini amaliyotga kiritish lozim. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tijorat banklarining

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

resurs bazasi tannarxini 1.5–2.0 foiz punktiga pasaytirish hamda ularning raqamli ekotizimlar sharoitida moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini islohot qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–5992-sonli Farmoni.O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y.
2. Abdullayeva, Sh. Z. Bank ishi: Darslik. Toshkent: «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2017.245–260-betlar.
3. Omonov, A. A. Tijorat banklarining resurs bazasini boshqarish samaradorligini oshirish (Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2017.18–32-betlar.
4. Jumayev, N. X. O‘zbekiston bank tizimida platformali ekotizimlarni rivojlantirish va uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri. Молия, (2),2023. 14–21-betlar.
5. Baltensperger, E. Alternative approaches to the theory of the banking firm. Journal of Monetary Economics, 6(1),2018. pp. 1–37.
6. Choudhry, M. An Introduction to Banking: Liquidity Risk and Asset-Liability Management. Hoboken, New Jersey: John Wiley & Sons,2019. pp. 85–110.
7. Vives, X. Digital Disruption in Banking. Annual Review of Financial Economics, Vol. 11,2019. pp. 243–272.
8. Gourp, P., & Rocher, S. API Banking and Deposit Mobilization: Strategic Shifts in European Retail Banks. European Financial Management Journal, No. 4,2022. pp. 112–129.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.Bank tizimi moliyaviy barqarorligi sharhi (2020–2024-yillar). Toshkent: Markaziy bank statistik axborotnomasi,2024.12–25-betlar.
10. JPMorgan Chase & Co. Annual Report 2024 (Form 10-K). New York: JPMorgan Chase & Co. Investor Relations, 2024.pp. 68–95.
11. https://cbu.uz
12. https://sqb.uz
13. https://www.jpmorganchase.com

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.